

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 07-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



UPI

The
Education
University



Excellence in
Learning Innovation



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Science Uzbekistan INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan

**Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated
December 27, 2024**

Editors

**Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva**

30.04.2025

by Liberty Academic Publishers, New York, USA
ALL RIGHTS RESERVED NO PART OF THIS BOOK MAY BE REPRODUCED IN ANY FORM, BY
PHOTOCOPYING OR BY ANY ELECTRONIC OR MECHANICAL MEANS, INCLUDING
INFORMATION STORAGE OR RETRIEVAL SYSTEMS, WITHOUT PERMISSION IN WRITING
FROM BOTH THE COPYRIGHT OWNER AND THE PUBLISHER OF THIS BOOK.

© Liberty Academic Publishers 2025

The digital PDF version of this title is available Open Access and distributed under the terms of the
Creative Commons Attribution-Non Commercial 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>) which permits adaptation, alteration, reproduction and distribution for
noncommercial use, without further permission provided the original work is attributed. The
derivative works do not need to be licensed on the same terms.

adopted by Mariam Rasulan

ISBN: 979-8-89695-061-5

INTERNATIONAL

CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated December 27, 2024

Turlanova Zamira Alisherovna, Umrzakova Sevara Abduqaxxorovna, Xudoyberdiyev Davron Xamidullayevich, Xudoyberdiyeva Maftuna Baxtiyor qizi	57
<i>O'QUVCHILARIDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN REFLEKSIV MODELI</i>	
Umarova Shohida Absalomovna, Erkinova Sevinch Jamshid qizi, Xusanboyeva Zarinabonu Xusniddin qizi, Rustamova Mohina Akbarali qizi, Dilnoza Kidirbaeva Maxsetovna	64
<i>TASHQI MEHNAT MIGRANT OILALARIDA QADRIYATLAR O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI</i>	
Beknazarova Saida Safibullayevna	70
<i>APPROACHES AND PRACTICAL METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL LITERACY OF FUTURE SPECIALISTS</i>	
Yuldashova Iroda Dilshodovna	75
<i>INKLUZIV TA'LIMDA ZAMONAVIIY TIBBIY TASHXISNING O'RNI VA AHAMIYATI</i>	
KUCHKINOV ABDUMALIK YULDASHOVICH	79
<i>STEAM YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TIMELAPSE TEXNOLOGIYASINI QO'LASH USULLARI</i>	
Baymetov Botir Boltaboyevich, Xamraqulova Muqaddam Tojiqo'zi qizi	82
<i>UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 5-7 SINFI O'QUVCHILARGA TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISHDA MANZARA JANRINING AHAMIYATI</i>	
Shermumammedov Abdulatif Abdishukur o'g'li	86
<i>PROS AND NEGATIVES OF LEARNING WITH DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS</i>	
Umarova Shohida Absalomovna	95
<i>SOG'LOM MULOQOT JAMOADA AHILLIKNI SHAKLLANTIRISH VA NIZOLARNI BARTARAF ETISH VOSITASI SIFATIDA</i>	
Насимова Малика Ибрагимовна, Хакимова Замира Султанмуродовна Турсунбаева Дилназа Аскаровна, Ахметова Дарья Владимировна Жалгасбаева Несибели Хожибай кизи	102
<i>РОЛЬ ПРАКТИЧЕСКИХ ПСИХОЛОГОВ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ И ПОДРОСТКАМИ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ</i>	
Baymetov Botir Boltaboyevich, Atajanova Rabbina Raximovnaning	108
<i>OILADA BOLALARNI TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI IDROK ETISHGA O'RGATISH ORQALI ESTETIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY YONDOSHUVNING AHAMIYATI</i>	
Umarova Shohida Absalomovna, Panjiyeva Mehrangiz Haydar qizi Ro'zimboyeva Raxbar Ixtiyor qizi, Narbayeva Dilshoda Mamut qizillxomova Nozima Nurmuhammedovna	115
<i>AKSELERATSIYA JARAYONINING INSON PSIXIKASIGA TA'SIRI</i>	

**SOG‘LOM MULOQOT JAMOADA AHILLIKNI SHAKLLANTIRISH VA NIZOLARNI BARTARAF ETISH
VOSITASI SIFATIDA**

Umarova Shohida Absalomovna
CHDPU Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
umarovashohida018@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada sog‘lom muloqotning jamoada ahillikni shakllantirish va nizolarni bartaraf etishdagi roli psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – jamoa a‘zolari o‘rtasidagi samarali kommunikatsiyaning ijtimoiy hamjihatlikka va konfliktlarning oldini olishga qanday ta‘sir ko‘rsatishini aniqlashdir. Maqolada O‘zbekiston va xalqaro tadqiqotlarning statistik ma‘lumotlari, shuningdek, amaliy misollar asosida sog‘lom muloqotni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom muloqot, jamoada ahillik, nizolarni bartaraf etish, faol tinglash, psixologik xavfsizlik, konstruktiv kommunikatsiya.

Абстрактный

В данной статье роль здорового общения в формировании гармонии в коллективе и устранении конфликтов анализируется с психолого-педагогического и социального аспектов. Основная цель исследования – определить, насколько эффективное общение между членами команды влияет на социальную сплоченность и предотвращение конфликтов. В статье разработаны рекомендации по развитию здорового общения на основе статистических данных Узбекистана и международных исследований, а также практических примеров.

Ключевые слова: здоровое общение, командная гармония, разрешение конфликтов, активное слушание, психологическая безопасность, конструктивное общение.

Abstract

In this article, the role of healthy communication in the formation of harmony in the team and elimination of conflicts is analyzed from psychological, pedagogical and social aspects. The main goal of the research is to determine how effective communication between team members affects social cohesion and conflict prevention. The article elaborates recommendations for the development of healthy communication based on statistical data of Uzbekistan and international studies, as well as practical examples.

Key words: healthy communication, team harmony, conflict resolution, active listening, psychological safety, constructive communication.

KIRISH

Jamoa ishi samaradorligi va barqarorligi, birinchi navbatda, a‘zolar o‘rtasidagi sog‘lom muloqotga bog‘liq. Sog‘lom muloqot – bu o‘zaro hurmat, faol tinglash, aniq va konstruktiv fikr almashishni o‘z ichiga olgan kommunikatsiya jarayoni. Zamonaviy psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, jamoada ahillikni shakllantirish va nizolarni bartaraf etishda muloqotning roli asosiy o‘rinda turadi. O‘zbekistonda jamoaviy ish madaniyati rivojlanishi bilan birga, sog‘lom muloqotni rag‘batlantirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o‘rganish uchun ham taqlid orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish zarur. Jamiyat qonun - qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi.

Individ bilan shaxs muloqoti o'rtasida juda katta farqni ko'rish mumkin. Masalan, go'dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o'rtasidagi farq. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan avval miyasida o'ylaydi, so'zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o'rni katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog'chada bolaga kattalar muloqot orqali ta'sir qiladilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun o'quvchiga o'qituvchi muloqot orqali ta'sir etishga harakat qiladi. Demak, muloqot ta'sir qilish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida muloqotning o'rni beqiyos. Oddiy ko'nikma ("to'g'ri o'tir, qo'lingni yuv, joyingga bor, salom ber") larni ham muloqot orqali singdiriladi. Shaxs muloqotini shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o'rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta'sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko'rsatmalarigizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin. Biz oldimizga har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalashni qo'yganmiz. Prezidentimiz doimo yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalashni uqtiradilar. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shaxs shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida bir necha psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, rus psixologi

B.G.Ananev "Odam bilishning predmeti sifatida" asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot o'zatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar ular rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G.Ananev asosli fikrlarni keltiradi. B.G.Ananev fikricha: "Muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralalar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi". Demak, olim muloqot tushunchasini umumiy, yosh va pedagogik psixologiya kabi fanlar uchun chuqur tahlil qilib bergan. Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti katta ahamiyatga ega. Atoqli psixolog olimlardan yana biri V.N.Myasihev muloqot masalasiga chuqur yondoshgan, uni o'rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, V.N.Myasihev muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: "Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkin."

TADQIQOT NATIJALARI

Sog'lom Muloqotning Ahillikga Ta'siri:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, jamoalarining 68%ida muloqot samaradorligi yuqori bo'lgan guruhlarda konfliktlar 45% kamroq kuzatilgan.

Kuzatuv jarayonida aniq ko'rsatmalar va o'zaro hurmat asosidagi muloqot jamoaviy ishonchni 30% oshirgan.

Nizolarni Bartaraf Etishda Muloqotning Ahamiyati:

Konfliktlarning 75%i noto'g'ri tushunish yoki muloqot buzilishi natijasida kelib chiqqan.

"Faol tinglash" usullarini qo'llagan jamoalarda nizolarni hal qilish tezligi 50%ga oshgan.

Madaniy Omillarning Ta'siri:

O'zbekiston kontekstida jamoa a'zolarining "obro'" va "nomus" tushunchalari muloqot uslublariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq:

—o'quvchilar bilan o'zaro birgalikda harakat qilish;

—bolaga ta'sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash;

—o‘qituvchining o‘z-o‘zini boshqara olishi;

—o‘zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik harakterini saqlay bilish. Demak, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ziddiyatlarga borsa, qandaydir muammo tug‘ilsa darhol hal qilishi lozim. Pedagogik muloqotdagi ijodiylik ham shunda bilinadi. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi bolani ko‘ziga qarab uning hayolidan nima kechayotganligini bilib olishi kerak. Ijodiylik o‘zaro munosabatlardan boshlanadi. Har bir pedagog o‘z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo‘lishi lozim. Ya’ni nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta’sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi. Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

— bir necha o‘qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o‘quvchilarning kayfiyatini, o‘qituvchining bolalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini aniqlash;

— o‘qituvchining darsda qanday usullarni qo‘llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o‘quv-tarbiyaviy muammolarni yechishini aniqlash;

— o‘zining muloqot texnologiyasini boshqa o‘qituvchining “texnologiyasi”ga taqqoslashi;

— tajribali o‘qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash;

— o‘zining darsidagi muhiti bilan boshqa tajribali o‘qituvchining darsidagi muhitni taqqoslash orqali xulosa chiqara olish.

MUHOKAMA

Muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida shaxsning shakllangan sifatleri, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo‘lsa (xushmuomalalilik, kamtarlik, insonparvarlik, to‘g‘ri so‘zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni ham yaxshi o‘tadi. Chunki shaxslar bir-birini to‘g‘ri tushinishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ular samimiy bo‘lishlari lozim. Samimiylik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo‘lib, voqea-hodisalarga oqilona munosabatda bo‘lish, turli ta’sirlarga berilmaslikdir. Samimiylikning muhim belgisi-bu yuzdagi xushmuomalalik ifodasi va tabassum. Samimiylik bizning kayfiyatimizga ham bog‘liq, chunki kayfiyatimiz yaxshi bo‘lsa, samimiylik ko‘chayadi. Samimiylik ko‘rsatish uchun kishining ko‘ngli toza, oqko‘ngil bo‘lish lozim. Samimiylik fazilati ayniqsa rahbarning xodimlari bilan qiladigan muloqotida muhimdir. Agar rahbar xodimlari bilan samimiy munosabatda bo‘lmasa ularning kayfiyati tushib, mehnat unumdorligi pasayishi mumkin. Ayrim rahbarlar qo‘l ostidagilar bilan qo‘pol, mensimasdan munosabatda bo‘lib, buyruq ohangida avtoqratik uslubga asoslanib ish ko‘radilar. Mashhur Amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi kitobida ko‘rsatilishicha, bir rahbar doimo kovog‘ini solib yurgan, kishilar bilan samimiy munosabatda bo‘lmagani uchun hamma undan qo‘rqib, undan qochib yurar ekan, hatto turmush o‘rtog‘i bilan ham mensimasdan muomala qilar ekan. Karnegining ma’ruzasidan so‘ng bu rahbar turmush o‘rtog‘iga ham, qo‘l ostidagi kishilarga ham samimiy jilmayib muomala qilishni boshlaganida hamma uni yaxshi ko‘rib obro‘si ortib ketibdi, o‘zining ham kayfiyati ko‘tarilib ketibdi. Muomala sirlaridan yana biri -bu kishilar bilan munosabatda jilmayishdir. D. Karnegi fikricha, jilmayganda biz bir-birimizga yaxshilik qilish istagida turamiz. Masalan, transport haydovchilari, aholiga xizmat ko‘rsatish xodimlari, oshpazlar, sartaroshlar, sotuvchilar samimiy bo‘lsalar, kamtar, xushmuomala bo‘lsalar, “biz sizga xizmat ko‘rsatishdan mamnunmiz” degan so‘zlarni ishlatsalar, ularning obro‘lari ortib, muxlislari ko‘payadi, kishilar ularning xizmatlaridan ko‘proq foydalanadilar. Bolalarni yoshlikdan avvalo oilada, so‘ngra ta’lim maskanlarida muloqotga o‘rgatib boriladi. Muloqotga o‘rgatishning usullaridan biri mashg‘ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog‘cha sharoitida tarbiyachi turli mashg‘ulotlar o‘tkazib muloqotga o‘rgatadi. Avval elementar o‘zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullarni tarkib topshiriladi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxsga ijtimoiy - psixologik treninglar tashkil qilish orqali muloqotga o‘rgatiladi. Shaxsning o‘zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki shaxs muloqotda bo‘lmasdan faoliyat sub’ekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to‘laqonli rivojlana olmaydi. Bodalev fikricha, hatto o‘yin faoliyatida bola muloqotda bo‘ladi. Ta’lim jarayonining asosida muloqotga o‘rgatish masalasi birinchi o‘rinda turadi. Qolaversa mehnat ta’limi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonni dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi. Ya’ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi.

XULOSA.

Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish – o'zini – o'zi mukammallashtirish, o'zini – o'zi ruyobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini – o'zi baholash, o'ziga – o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish – bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi.

Do'stona muloqot o'rnatish va do'st tutinish muammosi o'spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanadi

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini – o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bowlby, J. (1969). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. New York: Basic Books.
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" Z.T.Nishanova, N.G.Komilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent-2018
5. "Rivojlanish psixologiyasi" fanidan ma'ruzalar matni Jo'rayev O'tkir Toshpo'latovich
6. "Umumiy psixologiya" G'oziyev.E "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2010
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 66-bet
8. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 137-bet
9. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>
10. Sirojiddin Amangeldiyev Nurg'aliy o'g'li. Psixologik maslahat gipotezalarini shakllantirish. Central asian academic journal ISSN: 2181-2489 OF scientific research volume 1 I ISSUE 1 I 2021. <https://search.app/R78CQ7R1YR9Sg7PR6>